

O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARINING O'RNI

K.M. Umarkulov, i.f.n., dotsent,
To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li magistrant,
Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi talaba
University of Business and Science
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17062696>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining o'rni tahlil qilinadi. Mavzuga oid statistik ma'lumotlar asosida tadbirkorlik sub'yektlarining umumiy eksportdag'i ulushi, ularning faoliyati va rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shu bilan birga, eksport faoliyatida uchrayotgan asosiy muammolar — moliyaviy resurslarning cheklanganligi, xalqaro bozorga kirishdagi to'siqlar, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, sertifikatlash, logistika va malakali kadrlar tanqisligi kabi omillar keng tahlil qilinadi. Muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Maqola tadbirkorlik sub'yektlari eksport salohiyatini oshirish borasidagi islohotlarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Eksport salohiyati, tadbirkorlik sub'yektlari, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, eksport hajmi, tashqi iqtisodiy faoliyat, bojxona, logistika, sertifikatlash.

Kirish. Global iqtisodiyotning keskin o'zgaruvchan sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda tashqi savdo munosabatlari, xususan, eksport salohiyatini oshirish masalasi muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarda ochiq iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda tashqi bozorlarga faol chiqishga harakat qilmoqda. Shu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksportdag'i ulushi va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Tadbirkorlik sub'yektlari nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va

hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ularning eksport salohiyatini rag‘batlantirish orqali O‘zbekistonning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta‘minlash, valuta tushumlarini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

Shu munosabat bilan, mazkur mavzuda O‘zbekistonda tadbirkorlik sub’yektlarining eksport faoliyatidagi o‘rni, ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va mavjud muammolarni aniqlash orqali ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning tashqi bozorlardagi ishtirokini kengaytirish bo‘yicha bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. 2024 yilda mamlakat eksport hajmi 24,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, shu miqdorning 36 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlariga to‘g‘ri kelgan.

1-jadval

2020–2024 yillar davomida O‘zbekistondagi eksport hajmi va tadbirkorlik sub’yektlarining ulushi (2020–2024)

Yil	Eksport hajmi (mlrd. \$)	Tadbirkorlik sub’yektlari ulushi (%)
2020	15.1	27
2021	16.6	29
2022	19.2	31
2023	21.5	33
2024	24.3	36

Manbalar: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi – <https://stat.uz>, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi – <https://customs.uz> O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi – <https://mift.uz>.

Yuqoridagi raqamlar kichik biznes sub’yektlari eksport faoliyatining yildan-yilga ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Biroq bu sohaga oid muammolar ham mavjud. Xususan, eksport jarayonida bojxona rasmiylashtiruvi, logistika, sertifikatlash va xorijiy til bilimlarining yetishmasligi muhim to‘siqlar sifatida qayd etiladi.

Umuman olganda, tadbirkorlarning eksport faoliyati bilan bog'liq bolgan quyidagi muammolarni alohida qayd etish mumkin:

1. Tashqi bozorga kirishdagi to'siqlar

a) Bozorlar haqida yetarli axborot yo'qligi

Tadbirkorlar ko'pincha xorijiy davlatlarning bozor talablari, iste'molchilar xulqatvori, bojxona rasmiylashtiruvi, raqobatchilar haqida yetarli va ishonchli ma'lumotga ega emaslar.

b) Marketing va brendlash bo'yicha tajriba kamligi

Mahsulotni xorijiy bozorda targ'ib qilish uchun professional marketing strategiyalarining yo'qligi, mahsulot dizayni va brend imijiga e'tibor yetishmasligi eksport samaradorligini pasaytiradi.

2. Moliyaviy va texnik resurslarning cheklanganligi

a) Aylanma mablag'lar tanqisligi

Eksport uchun mahsulot tayyorlash, yetkazib berish, sertifikatlash va boshqa xarajatlar katta moliyaviy sarmoya talab etadi. Ko'pchilik kichik korxonalar bu xarajatlarni qoplay olmaydi.

b) Kredit resurslarining cheklanganligi va foiz stavkalarini

Banklar tomonidan taklif qilinayotgan kreditlar eksport uchun qulay emas: foiz stavkalarini yuqori, garov talab qilinadi, rasmiylashtirish murakkab.

3. Logistika va infratuzilma muammolari

a) Transport xarajatlarining yuqoriligi

Tashqi bozorga yetkazib berishda avtomobil, temiryo'l va avia yuk tashish xarajatlari raqobatchi mamlakatlarga nisbatan yuqori.

b) Sovutkichli transport va saqlash imkoniyatlarining yetishmasligi

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida zarur infratuzilma yo'qligi eksport salohiyatini cheklaydi.

4. Sertifikatlash va sifat talablariga moslashishdagi muammolar

a) Xalqaro standartlar va sertifikatlarning yo'qligi

Ko‘plab kichik biznes sub’yektlari ISO, HACCP, Halol, EAC va boshqa xalqaro sifat tizimlari talablariga javob bera olmaydi, bu esa ularning eksport imkoniyatini cheklaydi.

b) Mahsulotlar tarkibi va markirovkasi bo‘yicha talablar

Har bir davlatda mahsulotga qo‘yiladigan talablar turlicha bo‘lib, ularga moslashish uchun texnik bilim va mutaxassislar zarur.

5. Kadrlar va bilim yetishmovchiligi

a) Eksport faoliyatiga oid malakali mutaxassislar kamligi

Ko‘plab tadbirkorlik sub’yektlarida xorijiy tillarni biladigan, eksport shartnomalari bilan ishslash, bojxona va sertifikatlash hujjatlarini yurita oladigan mutaxassislar mavjud emas.

b) Eksport bo‘yicha maslahat va konsalting xizmatlari rivojlanmagan

Mikro va kichik tadbirkorlar uchun mavjud bilim resurslari va treninglar yetarli emas yoki qamrovi tor.

6. Huquqiy va institutsional muammolar

a) Eksportchi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda noaniqlik

Davlat tomonidan yaratilgan yordam dasturlari (subsidiyalar, eksport sug‘urtasi, grantlar) haqida barcha tadbirkorlar xabardor emas yoki ularga kirish qiyin.

b) Normativ-huquqiy bazaning tez-tez o‘zgarishi

Bojxona, soliq va eksportga oid me’yoriy hujjatlar doimiy o‘zgarib turishi tadbirkorlar uchun noaniqlik va byurokratik to‘siqlarni keltirib chiqaradi.

7. Valyuta tartibi va to‘lov muammolari

a) Valyuta kursining beqarorligi

Eksportdan tushgan daromadni rejalashtirishda valyuta kurslarining tebranishi tadbirkorlar uchun moliyaviy tavakkalchilik tug‘diradi.

b) Xorijiy mijozlar bilan hisob-kitobdagi xavflar

Xalqaro hisob-kitoblar (akkreditiv, bank kafolatlari) bilan ishslash tajribasi kamligi sababli tadbirkorlar firibgarlik qurbaniga aylanishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar zarur:

- Eksportga ixtisoslashgan konsalting markazlarini tashkil etish;
- Mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish uchun texnik yordam ko‘rsatish;
- Eksport-import bank faoliyatini kuchaytirish;
- Eksport yo‘nalishida mo‘ljallangan infratuzilma va logistika markazlarini rivojlantirish;
- Eksportchi tadbirkorlar uchun trening va grant dasturlarini kengaytirish.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston eksport salohiyatini oshirishda tadbirkorlik sub’yektlarining roli tobora ortib bormoqda. Ularning eksportdagi ulushi yildan-yilga oshib, mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Shu sababli ularni yanada qo‘llab-quvvatlash, moliyalashtirish va xalqaro bozorlarga chiqish uchun qulay sharoitlar yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.05.2019 yildagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5718-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida PF-60-son Farmoni.
4. Dominick S., International economics. Printed in the USA /. – 13th ed. 2019. 720 p.
Thomas A. Pugel. International Economics. Printed in the USA /. – 18th Edition. 2024.
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari – <https://stat.uz>.
6. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy axborotlari – <https://mift.uz>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ma’lumotlari – <https://chamber.uz>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi – <https://customs.uz>.